

**OLIJ HARBIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12112863>

Shermatov Bunyodbek Burgutovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi podpolkovnik

Annotatsiya: *Maqolada Oliy harbiy ta'lim tizimining hozirgi holati, istiqbollari, dolzarb vazifalari, innovatsiya va innovatsion yondoshuvlar, zamonaviy ta'lim muammolari hamda ularning samarali yechimi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Oliy harbiy ta'lim, ta'lim sifati, innovatsiya, bilim, ko'nikma va malaka, nazorat, bilimlarni o'zlashtirish, istiqboldagi vazifalar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается существующая структура образования в высших военных учреждениях её будущее, основные задачи, инновационные подходы, а также размышления по эффективному устранению проблем связанных с иновационным подходом к образовательно-му процессу.*

Ключевые слова: *Высшее военное образование, качество образования, иновация, знания, навыки и квалификация, контроль, усвоение знаний, задания на будущее.*

Abstract: *This article examines the existing structure of education in higher military institutions, its future, main tasks, innovative approaches, as well as reflections on the effective elimination of problems associated with a modern approach to the educational process.*

Keywords: *Higher military education, quality of education, innovation, knowledge, skills and qualifications, control, knowledge acquisition, tasks for the future.*

Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz [1].

Oliy harbiy ta'lim muassasasi imidji shakllanishi va uning samarali boshqarilishi ta'lim sifatiga bevosita bog'liq. Barqaror va ijobiy imidj, ya'ni ta'lim muassasasining jamiyatdagi obro'si uni tanlovchilar uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Raqobat muhiti abituriyentlarni doimo muayyan ta'lim muassasini tanlashga undaydi. Har qanday abituriyent qaysi oliy ta'lim muassasaga kirishni juda ko'p o'ylaydi, nafaqat o'zi, balki otanasi bilan bu masalani muhokama qiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasining maqsadi - zamonaviy talablarga javob bera oluvchi oliy ma'lumotli harbiy mutaxassislarni yetishtirib berishdan iborat. O'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilimlarga kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, shu bilan birga ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy va ilmiy-texnikaviy sifatlarni o'ziga

singdirgan, mamlakatimizning mudofaa salohiyatiga o'z xissasini qo'sha oladigan kadrlarga talab bugungi kun ehtiyojidir.

Ta'lim tizimi sifatiga hozirgi davrda dunyoning barcha mamlakatlarida katta ahamiyat berilmoqda. Umumiy tarzda, ta'lim tizimida sifatni takomillashtirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- talim sifatini ichki monitoring dasturini ishlab chiqish;
- ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha tashkiliy tarkibiy strukturasi ishlab chiqish;
- tizimni joriy qilish bo'yicha ishchi guruhni tuzish;
- ta'lim tizimining samardorligini ta'minlash.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni an'anaviy va innovatsion shakllarda amalga oshirilishi qayd etilgan. An'anaviy ta'lim barchaga bir xil innovatsion elementlarsiz beriladi. Innovatsion ta'lim esa ta'limning eksperimental faoliyatida yaratiladi. Bu evrestik, ya'ni butunlay yangicha, innovatsion ta'lim jarayonini hosil qilishni anglatadi. Aynan shu tadbir asosida ta'limning sifati va samarasi yuqori darajaga ko'tariladi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'limi tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishni ta'minlaydi, axloqli insongina ta'lim va bilimni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz [2].

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti natijasida yangi yo'nalish – innovatsion pedagogika vujudga keldi.

“Innovatsiya” atamasining ingliz tilidan tarjimasi – “yangilikni kiritish, tarqatish” degan ma'nolarini anglatadi. Innovatsion pedagogika atamasi va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda 20-asrning 60-yillarida paydo bo'ldi.

Ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion faoliyat pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi [3].

Turli innovatsion xizmatlar o'zaro vertikal sxema orqali bir-biri bilan bog'langan. Innovatsion ta'lim hozirgi zamon sharoiti talablariga javob beruvchi, uning talabini qondiruvchi, yangi sohadagi kadrlarni tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

Ta'limga innovatsion yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Fanga doir innovatsiya. Fan xususiyatidan kelib chiqib, uni kursantlarga o'qitish, yangi usullarni qo'llash orqali, o'zlashtirish darajasini ko'tarish, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar yaratish, mustaqil mualliflik texnologiyalarini ishlab chiqish;

Umummetodologik innovatsiya. Mavjud pedagogik amaliyotni noan'anaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etish orqali rivojlantirish, ya'ni ijodiy ishlarni bajarish, loyihaviy vazifalarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish;

Mafkuraviy innovatsiyalar. Davr bilan hamohang ravishda ong va tafakkurni yangilash orqali innovatsiyalarni birinchi darajadagi zaruriyat sifatida anglash;

Ma'muriy innovatsiyalar. Turli darajadagi boshliqlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar zamonaviy menejment uslublarining integratsiyasi asosida yuqori samaradorlikka yo'naltirilganligiga erishish va hokazo.

Jahon mamlakatlarining harbiy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirda ta'lim tizimi modul tarzida amalga oshirilib, bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun zamin yaratmoqda.

Zamonaviy jarayonlar va ta'lim berishga bo'lgan yangicha yondoshish innovatsion ta'lim texnologiyalarining qo'llash talab etadi. Hozirgi zamon o'qituvchisi ilmiy bilishning uzatuvchi bo'libgina qolmay, o'zi mustaqil ravishda dars berishning optimal strategiyasini tanlay olishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, ta'lim jarayonida ijodiy, interfaol muhitni tashkil qila olishi zarur.

Passiv o'qitish shakli bugungi kunda ta'lim sifatining pastligidan dalolat beradi. Bunday usul kursantlarni faqat eshituvchiga aylantiradi, ta'lim sifatini pasaytiradi, o'zlashtirish darajasini ham yuqori bo'lishini ta'minlamaydi. Kursantlarning bilimni baholash so'roq shaklida, mustaqil va nazorat ishlari oddiy testlar o'tkazish yo'li bilan o'tkazilib, o'zlashtirish darajasi juda sayoz baholanadi.

Bilim darajasining baholashning test shakli afzalliklari bilan birga ba'zi kamchiliklarga ham ega. Munozara, bahslar vaqtida ko'p professor- o'qituvchilarning testlarlarga nisbatan salbiy munosabati, ya'ni bunday nazorat shaklida kursant va o'qituvchi o'rtasida og'zaki muloqotning mavjud emasligi, kursantning mantiqiy fikrlashini aniqlash imkoniyati yo'qligini bildiradi. Bilimlarni yozma ravishda, mantiqiy ketma-ketlikda izohlash imkoniyati test nazoratida amalga oshiriladi. Shu tarafdin test shaklida nazorat talabani har tomonlama obyektiv baholash imkoniyatini bermaydi. Haqiqatdan, test-nazoratida bunday imkoniyat yo'q. Shuning uchun joriy nazorat shaklida og'zaki so'rov, yozma nazorat ishlari, interfaol usullardan foydalanish orqali kursantlar bilimni xolisona baholash zarurati oxirgi vaqtlarda keng targ'ib qilinmoqda.

Fan bo'yicha seminarlar, laboratoriya va loyixa ishlari, mustaqil ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali kursantlar o'z bilimni yaqqol namayon qilishi va obyektiv baholanishini pedagogik tajriba tasdiqlaydi. Ba'zan o'qituvchilar, yakuniy test nazoratiga kursantlarni tayyorlab borish maqsadida joriy nazorat davrida ham testlardan foydalanadilar. Bunday kamchiliklarga yo'l qo'yish bilimni obyektiv baholashga salbiy ta'sir etadi. Natijada kursantlar ijodiy fikrlash, fanni chuqur o'zlashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash kabi qobiliyatlardan mahrum bo'ladi. Har bir kafedraning professor-o'qituvchilari nazorat shakllariga bo'lgan o'z munosabatlarini o'zgartirishi va kursantlarning bilimni mustahkamlashga intilishi kerak.

Innovatsion ta'lim olishning faol usullariga, ta'lim jarayonida turli o'quv vositalari, kompyuter texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan. Interaktiv savol-javoblar, "aqliy hujum" kabi usullar kursantlarni fikrlash doirasini kengaytirish va mantiqiy xulosa qilishga

yo'naltirilganligi bilan auditoriyani passiv guruhdan aktiv jamoaga aylantirishga shart-sharoit yaratadi.

Kursantlarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda pedagogik muloqotning o'рни beqiyos. Aynan pedagogik muloqot pedagogik jarayonning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda asosiy o'rinni ustoz-murabbiylarning muloqot madaniyati egallaydi.

Muloqot jarayonida ko'zlangan maqsadga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarish mumkin bo'ladi. Bundan kelib chiqib, muloqotning quyidagi funksiyalarini ko'rsatish mumkin:

1. Aloqa o'rnatuvchi. Bu funksiyaning maqsadi axborot olish va uzatish uchun o'zaro tayyor holda aloqa o'rnatishdan iborat.

2. O'zaro axborot almashuvchi. Bunda talabga muvofiq qandaydir ma'lumot olish-uzatish, shuningdek fikr, qaror almashish amalga oshiriladi.

3. Rag'batlantiruvchi. Muloqot jarayoni bo'yicha sherigini faollikka rag'batlantirish va uning natijasida ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishga undash nazarda tutiladi.

4. Tartibga soluvchi. Birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda o'zaro muvofiq va kelishilgan harakatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

5. Tushunishni ta'minlovchi. Muloqotga kirishgan sheriklar tomonidan axborotni o'zaro aynan tushunishgina emas, balki ularning maqsadini, xohish-istaklarini, kayfiyatini, his-hayajonlarini, holatini to'g'ri tushunishni ta'minlaydi.

6. His-hayajonini uyg'otuvchi. Bunda sherigida kerakli hissiy kechinmalarni uyg'otish, shuningdek shaxsiy holatini va his-hayajonlari yordamida uning kayfiyatini o'zgartirish imkoniyati tug'iladi.

7. Munosabat o'rnatuvchi. Individda ishtirok etishi kutilayotgan shaxslararo, ish yuzasidan, mavqei yuzasidan, roliga ko'ra va boshqa munosabatlarda o'zining o'rnini va rolini tezroq tushunib yetishga yordam beradi.

8. Ta'sir o'tkazuvchi. Muloqot vaqtida sherigining holatini, kayfiyatini, xulqini, qarorlarini, tasavvurlarini, ehtiyojlarini, faolligini o'zgartirishga imkon beradi [4].

Hozirgi zamon oliy harbiy ta'lim muassasalarining mavqeini yanada oshirish uchun ular faoliyatiga yangicha yondashish talab etadi:

ta'lim jarayonini yangicha "innovatsion" tashkil qilish, ya'ni har bir kursantning ongiga va qalbiga yo'l topish;

mutaxassislarning pedagogik tajribasi va mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

harbiy ta'lim muassasasining boshqa turdosh ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini keng yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, oliy harbiy ta'limdagi bugungi innovatsiya fan, ta'lim va amaliyotning o'zaro integratsiyasiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.